

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YULDASHEV FARXOD TALAZOVICH**

**TEXNOGEN CHIQINDILARDAN SEMENTGA FAOL MINERAL  
QO‘SHIMCHA VA UNI TAYYORLASH USULI**

**11.00.05 - Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasiz ixtiro  
patenti asosida himoya bo‘yicha**

**TAQDIMNOMA**

**TOSHKENT – 2024 y**

**Falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish bo'yicha dissertatsiyasiz ixtiro  
patenti asosida himoya taqdimoti**

**Представление по присвоению научной степени доктора философии  
(PhD) по техническим наукам на основе защиты патента изобретения без  
диссертации**

**Presentation on awarding of the Doctor of Philosophy (PhD) scientific degree  
in technical sciences based on the patent of the invention without dissertation**

**Yuldashev Farxod Talazovich**

Texnogen chiqindilardan sementga faol mineral qo'shimcha va uni  
tayyorlash usuli..... 3

**Юлдашев Фарход Талазович**

Активная минеральная добавка к цементу из техногенных отходов и  
способ ее получения..... 19

**Yuldashev Farkhod Talazovich**

An active mineral additive to cement from man-made waste and a method for  
its production..... 37

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 42

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMiy-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMiy-TADQIQOT INSTITUTI**

**YULDASHEV FARXOD TALAZOVICH**

**TEXNOGEN CHIQINDILARDAN SEMENTGA FAOL MINERAL  
QO'SHIMCHA VA UNI TAYYORLASH USULI**

**11.00.05 - Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasiz ixtiro  
patenti asosida himoya bo'yicha**

**TAQDIMNOMA**

**TOSHKENT – 2024 y**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/Gr297 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Ilmiy tadqiqot ishi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb sahifada ([www.ecoiln.uz](http://www.ecoiln.uz)) manzili bo'yicha va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aminov Xamza Xusanovich**

texnika fanlari falsafa doktori, professor

Ilmiy tadqiqot ishi taqdimnomasi himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.18/30.11.2022.T.153.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da soat \_\_\_\_\_ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: [eco\\_nii@uznature.uz](mailto:eco_nii@uznature.uz)).

Ilmiy tadqiqot ishi taqdimnomasi himoyasi bilan Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz)).

Taqdimnoma 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli resstr bayonnomasi).

**B.A.Pulatov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

**L.N.Samiyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashi kotibi, t.f.d., dotsent

## KIRISH (taqdimnoma annotatsiyasi)

**Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sanoat chiqindilari muammosi eng jiddiy ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Mavjud chiqindilarning 96-98 % sanoat chiqindilariga to‘g‘ri kelib, ularni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha energiya-resurstejamkor ekologik toza texnologiyalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ularni utilizatsiya qilish texnologiyalarini ishlab chiqishda ekologik nuqtai nazardan samarali texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Jarayonning ekologik jihatdan samarador bo‘lishida sanoat chiqindilarini qayta ishlash va tozalash uchun ish samaradorligi yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda sanoat chiqindilarining ortib borishi natijasida korxonalar hududlari va yaqin-atrofdagi joylashgan aholi punktlari ifloslanish darajasini aniqlash, chiqindilarni qayta ishlash jarayonida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat chiqindilarini boshqa turdagi mahsulotga aylantirishda atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirish uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish orqali turli faol mineral qo‘shimchalar olish texnologiyasining optimal parametrlari asoslash, sanoat chiqindilaridan foydalangan holda qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish hamda jarayonning texnologik parametrlari ekologik talablarga javob berishiga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda hosil bo‘layotgan chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash borasida chiqindilarni poligonlarga yo‘naltirmasdan, maksimal darajada qayta ishlash va utilizatsiya qilish, ularni yangi turdagi mahsulotga aylantirish texnologiyalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston-2030 strategiyasida, jumladan, «... hosil bo‘layotgan chiqindilarni poligonlarga yo‘naltirmasdan, maksimal darajada qayta ishlash va qayta ishlash imkoni bo‘lmagan chiqindilarini kuydirishni yo‘lga qo‘yish...»<sup>1</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, chiqindilarni qayta ishlashda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazardan yondashish hamda utilizatsiya qilishda zamonaviy texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi «Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5-son Farmoni va 2019-yil 17-apreldagi «2019—2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PQ-4291-son, 2020-yil 19-sentyabrdagi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son\_ “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni

«Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4845-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019—2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sanoat chiqindilarini qayta ishlash, utilizatsiya qilish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish va ularni joriy etish bo‘yicha Respublikamizda va rivojlangan mamlakatlarda M.N.Nabiyev, K.S.Axmedov, S.Tuxtayev, Sh.S.Namozov, Z.Pulatov, M.Iskandarova, V.P.Guro, Gordon, V.M.Ramm, G.M.Aliyev, V.N.Azarov, A.G.Averkin, V.N.Ujov, A.M.Belivitskiy, A.Yu.Valdberg, V.S.Shvidkiy, M.G.Ladgichev, S.B.Stark, D.N.Vatuzov, A.M.Redvan, Yu.V.Startsyeva, O.V.Karpova, Ye.V.Omelchenko, R.A.Astanov kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ekstraktsion fosfor kislotasi ishlab chiqarishda chiqindi sifatida hosil bo‘ladigan fosfogipsni qayta ishlab, ulardan ekologik toza mahsulot olish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar T.A.Otaqo‘ziyev, Sh.S.Nomozov, N.Sirojiddinov, P.A.Arifov, M.Iskandarova, A.Erkaxodjayeva, V.V.Okorkov, Yu.G.Mesheryakov, S.V.Fedorov, N.P.Karpenko, D.K.Egemberdiyev, A.S.Seytkaziyev, X.I.Tursunbaev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Ammo, sanoat korxonalarida bir necha o‘n millionlab tonna sanoat chiqindilarning yig‘ilib qolishi ularni atrof-muhitga salbiy ta‘siri tobora oshib borishi, mavjud qayta ishlash usullari, ularning texnologik parametrlarini ilmiy asoslash bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Ilmiy tadqiqot taqdimnomasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining “Sanoat chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan sanoat chiqindilarini (fosfogips, kul-shlaklar) avtoklavda qayta ishlab, sementga faol mineral qo‘shimcha olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sanoat chiqindisi bo‘lgan fosfogips, kul va shlaklarni qayta ishlash orqali utilizatsiya qilish usullarini o‘rganish;

sanoat chiqindilaridan foydalangan holda portland sement olish texnologiyalarini ishlab chiqish;

sanoat chiqindilaridan olingan fosfozol faol qo‘shimchasining portland sementning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta‘sirini va me‘yoriy hujjatlar talablarini o‘rganish;

sementning fosfozol bilan qotish jarayonida gidratlanishning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rgani‘sh va tarkibga bog‘liqlik qonuniyatlarini aniqlash;

"tarkibi - struktura - xossa" tizimida korrelyatsion bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganish, "maydalangan klinker - fosfozol" ko‘p komponentli sementlarda struktura hosil bo‘lish jarayonlarini o‘rganish;

texnogen chiqindilarni utilizatsiya qilib, sementga faol mineral qo‘shimcha "Fosfozol" olish orqali ekologik vaziyatni yaxshilash.

**Tadqiqot ob‘ekti** sifatida ekstraksiyon fosfor kislota ishlab chiqarish jarayoni chiqindisi – fosfogips, Angren issiqlik stantsiyasi kuli, shlaklar va qo‘shimchali sement olingan.

**Tadqiqot predmeti** sifatida fosfogips, kul va shlaklarni avtoklavda qayta ishlashda sodir bo‘ladigan jarayonlar, qotish vaqtining o‘zgarishi, fosfozol miqdoriga bog‘liqligi, sement hosil bo‘lish jarayonlari va ularning sinovlari, tarkibga bog‘liq o‘zgarish qonuniyatlari o‘rganilgan.

**Tadqiqot usullaridan** kimyoviy, fizik-kimyoviy (termik, IQ-spektroskopiya, fotokolorimetriya, rentgen fazaviy, analitik va boshqa) tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan hamda mavjud me‘yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sement ishlab chiqarishda texnogen chiqindilardan foydalanib (fosfogips, kul va shlak), yangi turdagi sementga faol mineral qo‘shimcha "Fosfozol" olish texnologiyasi yaratilgan;

sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish orqali faol mineral qo‘shimcha - "Fosfozol" olish texnologiyasining optimal parametrlari aniqlangan va asoslangan;

atrof-muhitni ifloslantiruvchi texnogen chiqindilarni qayta ishlash hisobiga olingan "Fosfozol"ni sementga 20 % qo‘shish orqali 400 markali sement olingan;

texnogen chiqindilardan olingan "Fosfozol"ni sementga qo‘shishda uning miqdoriga qarab, sementning qotish jarayoni vaqtini boshqarish mumkinligi isbotlangan;

texnogen chiqindilar asosidagi qo‘shimchali sementlarning qotishida "tarkib-struktura-xususiyat" korrelyatsion bog‘liqligi aniqlangan.

**Ixtiro ilmiy yangiliklarining katta ahamiyati quyidagilardan iborat:**

ekstraksiyon fosfor kislota ishlab chiqarishda katta miqdorda hosil bo‘ladigan sanoat chiqindisi - fosfogips va Angren IES kul va shlaklari asosida sementga yangi turdagi faol mineral qo‘shimcha "Fosfozol" olish texnologiyasi yaratilgan va ixtiroga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan patent olingan (№ IAP 05372 26.03.2014);

sement ishlab chiqarish jarayonida klinkerga yaratilgan faol mineral qo‘shimcha - fosfozol 20% qo‘shilganda o‘rnatilgan talablarga javob beradigan 400 markali sement olish texnologiyasi yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Yaratilgan texnologiyaning joriy qilinishi natijasida 350 ming tonnadan ortiq sanoat chiqindilari utilizatsiya qilingan va GOST 10178 va O‘zDst 28-30-2014 standartlariga javob beradigan 3 million tonnadan ortiq qo‘shimchali sement ishlab chiqarilgan hamda iqtisodiy samaradorlik qariyb 350 milliard so‘mni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlar davomida olingan natijalarining nazariy hisob-kitoblarga mos kelishi, tajriba-sanoat sinovidan muvaffaqiyatli o‘tganligi, qo‘shimchali sement ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilishi natijasida katta iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fosfozol va Angren kulidan ma‘lum nisbatlarida tayyorlangan shixta avtoklavda 300°C gacha haroratda qayta ishlanib, qo‘shimchali sement ishlab chiqarish uchun faol mineral qo‘shimcha olingan. Jarayonning optimal parametrlari va komponentlarning nisbatlari aniqlanib, olingan mahsulotni sement ishlab chiqarishda faol mineral qo‘shimcha sifatida qo‘llanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fosfogips, issiqlik elektr stantsiyalarida hosil bo‘ladigan kul kabi katta miqdorda yig‘ilib qolgan sanoat chiqindilari asosida faol mineral qo‘shimcha olish texnologiyasi yaratilgan va boradigan jarayonlar ilmiy asoslangan. Yaratilgan texnologiya bo‘yicha 350 ming tonnadan ortiq sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish orqali ular egallab turgan hudud chiqindilardan tozalanganligi va mazkur hududda ekologik holat birmuncha yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan va № IAP 05372 ixtiro patenti bilan himoyalangan texnologiya “ELEMENTAL” MCHJ, Ohangaron tumanida joylashgan “AXANGARANSEMENT” AJ da joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 17-maydagi 03-03/3-4826-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur tashkilotlarda texnogen chiqindilardan foydalanib, yaratilgan texnologiya bo‘yicha 3 million tonnadan ortiq qo‘shimchali sement ishlab chiqarilgan. Taklif etilayotgan texnologiya qo‘llanilganda 1 tonna sement ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga CO<sub>2</sub> gazlarning chiqishi 30-35 % ga kamaytirilgan. Joriy etilgan tashkilotda katta miqdorda energiya tejalishi hisobiga korxonaning yangi texnologiyani joriy etishdan iqtisodiy samaradorligi qariyb 350 milliard so‘mni tashkil etgan. Mazkur texnologiyani joriy qilish natijasida sement ishlab chiqarish sanoatida yiliga ishlatiladigan 2 mln. tonna gipsni tejashga va ochiq usulda kovlab olinadigan gips karyerlaridan atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni ma‘lum miqdorda kamaytirish imkoniyati yaratilgan. Ijtimoiy samaradorlik sanoat chiqindilarning utilizatsiya qilinishi, atmosferaga tashlanayotgan gaz tashlamalari miqdorining kamaytirilishiga hamda aholining yashash va ishlash sharoiti yaxshilanishiga imkon yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan. Yaratilgan va №IAP 06715 ixtiro patenti bilan himoya qilingan texnologiya 2022-yilda eng yaxshi

intelektual mulk ob'ektlari uchun "Best IP 2022" tanlovida ishtirok etgan. Ilmiy-tadqiqot ishining asosiy natijalari Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida, 2 ta Scopus bazasida indekslanuvchi jurnalda nashr etilgan. Mavzu bo'yicha Intelektual mulk agentligining 2 ta ixtiro patenti ("Sementga faol mineral qo'shimcha olish va uni tayyorlash usuli" № IAP 05372 01.09.2014 y., "Сыревая смесь и способ приготовления активной минеральной добавки к цементу" RF№2756639) olingan.

## **IXTIRO VA ILMİY TADQIQOT IShINING ASOSIY MAZMUNI**

### **Sementga faol mineral qo'shimcha olish va uni tayyorlash usuli**

**Foydalanish sohasi:** Sement ishlab chiqarish korxonalari.


**Vazifasi:** Sement ishlab chiqarish jarayonida energiya resurslarini tejash uchun 20% gacha qo'shiladigan va o'rnatilgan Davlat standartlari talablarga javob beradigan 400 markali qo'shimchali sement olish uchun faol mineral qo'shimcha.

**Ilmiy tadqiqot ishini o'rganilganlik darajasi.** Texnogen chiqindilarni utillizatsiya qilish bilan atrof-muhit holatini yaxshilash, shuningdek ishlab chiqarilayotgan sement tannarxini pasaytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Mamlakatda sanoat chiqindilari ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga nisbatan ko'p chiqishi va to'planishi eng muhim iqtisodiy muammolar qatoriga kiradi. Portlandsement ishlab chiqarishda «Fosfozol»ni joriy qilish uni ishlab chiqarishni arzonlashtirishga yordam beradi, shuningdek korxonalarining chiqindi saqlash joylarida to'planib qolgan chiqindini qayta ishlash muammosini samarali hal qilishga ko'maklashadi.

Xorij olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bilan har yili besh milliard tonnadan ortiq chiqindi hosil bo'lishi, uning 99 % ga yaqinini ishlab chiqarish yoki texnogen chiqindilar tashkil etishi isbotlangan. Chiqindilar umumiy miqdoridan kamida 1% ni qishloq va o'rmon xo'jaligi (46 million tonna), kimyo sanoati (15 million tonna), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (13 million tonna), issiqlik energetikasi (20 million tonna) hosil qiladi. Kimyoviy o'g'itlarning bir tonnasini ishlab chiqarishda sulfat kislota bilan ishlov berish usulida apatitlar va fosforitlardan fosfor kislota ishlab chiqarishning qo'shimcha mahsuloti hisoblanadigan besh tonna chiqindi fosfogips hosil bo'ladi.

Ko'p tonnali texnogen chiqindini utilizatsiya qilish ekologik va iqtisodiy muammolarining eng yaxshi yechimi fosfogips va kul-shlakli chiqindi (KShCh)lardan sement ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida foydalanishda sementga faol mineral qo'shimcha «Fosfozol» olish misolida ko'rsatilgan. Xususan portlandsement olish uchun klinkerni maydalashda «Fosfozol» ni sementda qo'shish hisobiga sementning qotish muddatlarini boshqarish imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Texnogen chiqindilardan olingan «Fosfozol» dan foydalanish tabiiy xom ashyoni sezilarli darajada tejashga olib keladi, chunki sement tarkibida «Fosfozol» miqdorini 35% gacha yetkazish imkoniyati mavjud.



**1-rasm. Skanerlovchi elektron mikroskopdan foydalanib suratga olingan  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  shaklidagi fosfogips va hosil bo'lgan fosfogips chiqindilari.**

**Ixtiro mohiyati:** Sement klinkeriga qo'shiladigan faol mineral qo'shimcha olish uchun avval xom ashyo materiallari, yani ekstraksiyon fosfor kislotasi ishlab chiqarish jarayonida katta miqdorda hosil bo'ladigan fosfogips, shuningdek issiqlik elektr stantsiyalarida hosil bo'ladigan kul va shlaklar (zoloshlak) tanlab olindi. Xom ashyo komponentlarini tayyorlashda ularning tarkibida gips hamda qatlamli alyumosilikat minerallari borligi e'tiborga olindi.


Qo'shimchali sement ishlab chiqarishda energiya resurslari va tabiiy noruda materiallarni tejash uchun maydalash jarayonida klinkerga qo'shiladigan faol mineral "Fosfozol" ishlab chiqarish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, mazkur tadqiqot davomida fosfozol ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan va jarayonning barcha optimal parametrlari topilgan.

Jarayonda xom ashyo sifatida ishlatiladigan fosfogips, kul va shlak o'ziga xos bog'lovchi xususiyatlarga ega emas. Jarayon parametrlariga qarab, 150-300°C gacha bo'lgan haroratda maqbul deb topilgan tarkibli shixtaga avtoklavda ishlov berish ularga ho'llanganda qotish, ya'ni putsolan xususiyatlarini beradi, bu esa ulardan sement ishlab chiqarishda faol mineral qo'shimchalar sifatida ishlatilish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, muallif tomonidan taklif etilayotgan usulda fosfogips issiqlik elektr stantsiyalari kuli va shlaklari aralashmasidan topilgan aniq nisbatlarda shixta tayyorlanib, yuqorida keltirilgan haroratda avtoklavda gidrotermik ishlov berish orqali "Fosfozol" faol mineral qo'shimchasi olingan.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tabiiy bo'lmagan yangi turdagi faol mineral qo'shimcha Fosfozol ishlab chiqarishning printsiptial texnologik sxemasi 2-rasmda keltirilgan. Jarayonda foydalaniladigan xom ashyo issiqlik elektr stantsiyalarining maydalangan kuli va shlak chiqindilarini hamda fosfogips komponentlarini o'z ichiga oladi. Jarayon xom ashyolar, ya'ni fosfogips alohida, shlak va kul aralashmasini alohida konveyerlar (4) orqali bunkerlarga (1, 2)

yuklanadi. Xom ashyo materiallari vizual nazoratdan o'tkazilib, tarkibida metall, yog'och kabi ifloslantiruvchi qoldiqlar bor yo'qligi aniqlanib, mavjud bo'lgan taqdirda tozalanadi. So'ngra dozator orqali kerakli miqdorda va nisbatda elak orqali qoldiq qo'shimchalardan tozalanib, bolg'ali maydalagichga (3) tushadi. Bolg'ali maydalagichda xom ashyo materiallari diametri 5,0 mm dan katta bo'lmagan darajada maydalanadi, bunda fosfogips, kul va shlak yaxshi aralashadi (2-rasm).



## 2- rasm. "Fosfozol" faol mineral qo'shimchasini ishlab chiqarishning texnologik sxemasi

Kerakli darajagacha maydalangan va gomogen ko'rinishgacha keltirilgan xom ashyo aralashmasi transporter lentasi orqali avtoklavga (6) yuklanadi. Avtoklavda 15-25 daqiqa davomida fosfogips, kul va shlak tarkibidagi suv miqdori gidratlangan suv bilan birga 30 % dan ortmasligi kerak, ushbu xom ashyolar aralashmasi shixta tarkibiga qarab, 150-300<sup>0</sup>C haroratda qayta ishlanadi. Bunda kul va shlaklar tarkibidagi alyuminiy oksidlari 17-18 % bo'lgan kaltsiy miqdori nisbatan kam bo'lgan namunalari ishlatilib, nisbatlari mos ravishda fosfogips:kul+shlak 33,3-66,7 % bo'ladi.

Avtoklavdan chiqqan faol mineral qo'shimcha konveyer (4) orqali quritgich (8) ga yuklanadi va quritilgan mahsulot konveyer orqali tayyor mahsulot bunkeriga yo'naltiriladi.

**Fosfogips, kul va shlak kabi sanoat chiqindilaridan kompleks foydalangan holda "Fosfozol" faol mineral qo'shimcha olish taexnologiyasini ishlab chiqish.**

Kompozit qo'shimchali portlandsementi (PTS-KD20) sement zavodlarida "Kompozitsion qo'shimchali portlandsement" davlat standartiga muvofiq ishlab

chiqariladi. Ushbu turdagi sement Portland sement klinkerini, gips toshini va tabiiy va sun'iy qo'shimchalardan kompozitsiyalar (kvars, dala shpati, gliej, vulqon jinslari, issiqlik elektrostantsiyalari kuli va shlaklari, keramika chiqindilari, asbest-sement chiqindilari) birgalikda maydalash orqali ishlab chiqariladi. Me'yoriy hujjatlarga ko'ra, har qanday tarkibda sementga kiritilgan qo'shimchalarning umumiy miqdori 20 % dan oshmasligi kerak.

Xom ashyo komponentlari oldindan begona qo'shimchalar va ifloslantiruvchi aralashmalar: shag'al, kesaklar, yog'och mavjudligiga tekshiriladi. Tegishlixa saralanadi, so'ngra ular 5,0 mm o'lchamigacha maydalanadi. Maydalangan kul shlagi va fosfogips hajmi olti kub metr bo'lgan ikkita bunkerga alohida-alohida yuklanadi, komponentlarning jami hisobli namligi aniqlanadi, u 26% ni tashkil etadi va komponentlarning jami hisobli kislotaligi (pH) aniqlanadi, u 7,0 ni tashkil etadi. So'ngra quruq moddaga qayta hisoblangan KShCh ning 66,7% nisbatdagi va fosfogipsning 33,3% miqdordagi hisobli miqdori transporter lentarlari bo'ylab ishchi hajmi olti kub metrli sanoat tipidagi avtoklavga yo'naltiradi. Xom ashyoning uzatilishi tarozi datchiklari vositasida, bug' va suv uzatilishi esa datchiklar vositasida hajmi bo'yicha boshqariladi.

Aralashmadagi gidrant suvning umumiy miqdori uzatilayotgan xom ashyoning namligini hisobga olgan holda 30% dan oshmasligi kerak, ya'ni qo'shilayotgan suv miqdori aralashma massasining 4% ni tashkil etadi. Avtoklavda aralashmaga doimiy aralashtirib turgan holda va muayyan haroratda 32 daqiqa mobaynida ishlov beriladi.

Olingan tayyor qo'shimcha 30–60 daqiqa sovitiladi va polietilen qoplarga 50 kilogrammdan qoplanadi. Avtoklavda to'yingan bug' va yuqori harorat muhitida termik ishlov berish jarayonida «fosfogips + kul shlagi + suv» tizimida kimyoviy o'zaro ta'sir jarayoni o'tadi, eruvchan fosfat ionlari kul shlagi tarkibidagi kremnezem zarrachalari yuzasiga mustahkam singadi, bu bilan fosfogipsdagi kislotaga qoldiqlarini neytrallaydi. Fosfogips portlandsement ishlab chiqarishda uning qotish muddatlarini boshqaruvchi sifatida foydalaniladigan tabiiy gips tosh kabi tarkibga ega

Muallif tomonidan portlandsementga energetik mineral qo'shimcha sifatida "kul-shlak (zoloshlak) + fosfogips" aralashmasidan faol mineral qo'shimcha sifatida kompleks foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda avvalo xom ashyo materiallarining tarkiblari o'rganildi (1-jadval).

**1-jadval**

**"Zoloshlak + fosfogips" tarkibidagi minerallar miqdori**

Komponentlar nomi	Oksidlarning global ulushining tarkibi, %							
	PPP	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	SO <sub>3</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
Kul va shlak	7.98	54.83	21.35	3.19	5.73	1.31	0,57	0,51
								0,13*
Fosfogips	19.62	3.05	0,75	0,79	29.45	0,26	43.23	2,42*
<i>*Suvda eruvchan fosfatlarning guruh ulushi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo'yicha, % ko'rsatilgan</i>								

Olingan ma'lumotlarga muvofiq fosfogips va tabiiy gips toshda ikkisuvli gips miqdori ( $\text{SaSO}_4 \times 2\text{H}_2\text{O} = 2,15 \text{ SO}_3$ ) fosfogipsda - 78,07%, gips toshda esa - 85,46% ni tashkil etadi. Demak, ikkisuvli gipsga qayta hisoblaganda gips va gips angidritning umumiy miqdori bo'yicha fosfogips, xuddi gips tosh kabi, uchinchi navga kiritilishi va u sementning qotish muddatlarini boshqaruvchi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Muammo shundaki, fosfogips odatda barqaror kimyoviy tarkibga ega emas, uning tarkibida 25% gacha nam bo'ladi va u fosfor hamda ftorovodorod kislotalari aralashmalari bilan ifloslangan bo'ladi. Tarkibining barqaror emasligi fosfogipsning uzoq vaqtgacha chiqindi ag'darish joylarida bo'lishi bilan bartaraf etiladi, chunki tarkibi atmosfera hodisalarining ta'siri ostida barqarorlashadi.

Bu komponentlar tarkibidan ham ma'lumki, ular bog'lovchi xususiyatlariga ega emas, lekin ma'lum sharoitlarda qayta ishlab, ularga putsolan (namlikda qotish) xususiyatlarini berish mumkin. 1-jadvaldan fosfogips tarkibida 43,22 %  $\text{SO}_3$  bo'lib, 2 suvli gipsga hisob-kitob qilinganda 92,92 % ni tashkil qiladi. Fosfogipsda ham shuningdek, 2,42 % suvda eruvchan fosfatlar va kam miqdorda kremniy, alyuminiy va temir oksidlari uchraydi.

Kompozitsion qo'shimchalar tayyorlashda  $\text{SO}_3$  miqdori har bir komponent uchun aniqlandi, so'ngra "zoloshlak-fosfogips" nisbatlari turlicha bo'lganda, tarkibidagi  $\text{SO}_3$  miqdori qo'shib chiqildi:

1) zoloshlak-fosfogips – 50:50 bo'lganda

$$(\text{SO}_3) = 0,56 \cdot 0,50 + 43,22 \cdot 0,50 = 21,89$$

2) zoloshlak-fosfogips – 70:30 bo'lganda

$$(\text{SO}_3) = 0,56 \cdot 0,70 + 43,22 \cdot 0,30 = 13,36.$$

hisob-kitob natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

### Sement tarkibidagi kompozitsion qo'shimchalarning miqdori

Qo'shimchanning shartli nomlanishi	Komponentlar miqdori, massa bo'yicha %		$\text{SO}_3$ ning jami miqdori, %
	zoloshlak	Fosfogips	
Zsh:F 1	50	50	21,89
Zsh:F 2	70	30	13,36

**Xom ashyoni tayyorlash:** «ELEMENTAL» MChJ da ishlab chiqilgan sun'iy «Fosfozol» faol mineral qo'shimchanning yangi turini tayyorlash sxemasi o'z ichiga kul-shlakli chiqindi va tarkibida gips bo'lgan komponentni maydalash, ularni gomogen aralashma olinguncha aralashtirish, tayyor mahsulotni qoplashni oladi.

Fraktsion tarkibi 5,0 mm gacha bo'lgan kul rang ko'rinishdagi polifraktsion zoloshlak quritish shkafiga qo'yildi va  $100 \pm 5$  °C haroratda namligi 3 % dan kam bo'lguncha quritildi. Fraktsion tarkibi 5,0 mm gacha bo'lgan oqish-kul rang ko'rinishdagi polifraktsion fosfogips quritish shkafiga qo'yildi va 50°C haroratda namligi 3 % dan kam bo'lguncha quritildi.

Quritib olingan komponentlardan 2-jadvaldagi nisbatlar bo'yicha 2 xil namuna tayyorlandi va yaxshilab aralashtirilib, avtoklavda yuqorida ko'rsatilgan

texnologiya bo'yicha mahsulot olindi va namunalarning kimyoviy tarkibi tahlil qilindi (3-jadval).

**3-jadval**

**"Zoloshlak + fosfogips" aralashmasining mineralogik tarkibi**

Qo'shimcha ning shartli nomlanishi	Oksidlarning ulushi, %							
	PPP	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	SO <sub>3</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
ZshF 1	13,51	28,93	11,04	1,98	14,72	0,78	21,89	1,28
ZshF 2	11,31	39,28	15,16	2,46	12,83	0,98	13,36	0,83

Xom ashyo aralashmasi tarkibidagi SO<sub>3</sub> miqdori ularning faol mineral bo'lib ishlashida katta rol o'ynaydi, 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, Zsh-F1, Zsh-F2 aralashmalarida kremniy oksidlari ko'p miqdorda bo'lib, mos ravishda Zsh-F1- 28,93 % va Zsh-F2 - 39,28 % tashkil etdi, alyuminiy oksidlari esa Zsh-F1 – 11,04 va Zsh-F2 -15,16 % ni tashkil etdi, SO<sub>3</sub> miqdori esa mos ravishda Zsh-F1 – 21,89, Zsh-F2 – 13,36 ni tashkil etib, ushbu tarkiblar faol mineral qo'shimcha bo'lib ishlashi mumkinligini ko'rsatdi.

Zoloshlak + fosfogips nisbatlarini optimallashtirish va portlandsement klinkeri tarkibiga qo'shiladigan optimal miqdorlarini aniqlash bo'yicha tajribalar olib borildi, olingan natijalar quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

**4-jadval**

**Xom ashyo aralashmalarining taxminiy tarkibi**

Qo'shimchani ning shartli nomlanishi	Aralashmadagi SO <sub>3</sub> ning miqdori	Klinkerga qo'shiladigan xom ashyo miqdoriga qarab tarkibidagi SO <sub>3</sub> ning miqdori	
		15 %	20 %
Zsh-F1	21,89	3,81	4,88
Zsh-F2	13,36	2,00	2,67

Ma'lumki, Davlat standarti talablari bo'yicha portlandsement o'z xususiyatlarini saqlab qolishi uchun tarkibidagi oltingugurt angidridi (SO<sub>3</sub>) miqdori 1,0 % dan 3,5 % gacha bo'lishi kerak. Qo'shimchali sementning tajriba namunalarini olish uchun oltingugurt angidridi miqdori dastlabki hisob-kitoblar orqali aniqlandi, tahlil natijalariga ko'ra ZshF1 namunada oltingugurt oksidi miqdori me'yyordan ortiqligi va mos ravishda komponentlar nisbatlari bo'yicha klinkerga qo'shiladigan miqdori aniqlandi (4-jadval).

Qo'shimchali sement namunalarini tayyorlash uchun Zsh-F1 va Zsh-F2 nisbatlardagi faol mineral qo'shimchalardan foydalanildi. Buning uchun klinkerga mos ravishda har bir faol mineral qo'shimcha aralashmasidan maydalash jarayonida klinkerga 15% va 20% miqdorda qo'shilib, qo'shimchali sement namunalari

tayyorlandi. Bunda 4 xil qo‘shimchali sement kompozitsiyasi va taqqoslash uchun tarkibida 5 % gips tutgan, 1 ta qo‘shimchasiz portlandsement namunasi tayyorlandi (5-jadval).

Har bir namuna zo‘ldirli tegirmonda 40 minut davomida maydalandi, maydalanish darajasi № 008 g‘alvirdagi qoldiq asosida baholandi. Maydalash jarayonida qo‘shimchali sementning maydalanishi nisbatan yengil bo‘ldi va bunda qo‘shimchalarning nisbatlariga bog‘liqligi aniqlandi.

**5-jadval**

**"Zoloshlak + fosfogips" qo‘shimchasi qo‘shilgan sementlarning tarkibi va dispersligi**

Sement namunalarining shartli nomlanishi	Xom ashyo aralashmasining tarkibi, og‘irlik bo‘yicha, %				Maydalanish vaqti, min	№ 008 elakdagi qoldiq, %
	Klinker	Gips	ZshF1	ZshF2		
PC-D0	95	5	-	-	40	8
PZshF1- 15	85	-	15	-	40	5
PZshF1 - 20	80	-	20	-	40	5
PZshF2- 15	85	-	-	15	40	3
PZshF2- 20	80	-	-	20	40	3

Tayyorlangan qo‘shimchali sement namunalari zo‘ldirli tegirmonda 40 minut davomida maydalanganda №008 g‘alvirdagi qoldiq portland sementda 8 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, qo‘shimchali sement namunalarida 3 % dan 5 % gacha tashkil qildi va bu ularning maydalanish xususiyatlari yaxshilanganligini ko‘rsatdi. Tayyorlangan qo‘shimchali sement namunalarining kimyoviy tarkibi tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi (6-jadval).

**6-jadval**

**Sement namunalarining mineralogik tarkibi**

№	Sement namunalarining shartli nomlanishi	Xom ashyo shixtasi tarkibi, ogi‘rligiga nisb. %							
		PPP	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	SO <sub>3</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
<b>1</b>	PC-D0	1,66	19,60	4,93	3,38	60,58	3,42	2,76	-
<b>2</b>	<b>PZshF1-15</b>	<b>2,70</b>	<b>21,80</b>	<b>6,07</b>	<b>3,33</b>	<b>55,36</b>	<b>3,18</b>	<b>3,81</b>	<b>0,19</b>
<b>3</b>	<b>PZshF1-20</b>	<b>3,30</b>	<b>22,21</b>	<b>6,37</b>	<b>3,25</b>	<b>53,15</b>	<b>3,04</b>	<b>4,88</b>	<b>0,26</b>
<b>4</b>	PZshF2-15	2,34	23,35	6,68	3,40	54,66	3,21	2,53	0,12
<b>5</b>	PZshF2-20	1,66	19,60	4,93	3,38	60,58	3,42	2,76	-

ZshF1, ZshF2 qo‘shimchali sement namunalari tarkibida bundan tashqari 0,12 % dan 0,26 % gacha suvda eruvchan P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> mavjud. Qo‘shimchali ZshF1, ZshF2 namuna sementlarda oltingugurt angidridi mos ravishda 3,81 % va 4,88 % bo‘lib, o‘rnatilgan talablardan 0,31 % va 1,38 % ga ortiqligi aniqlandi. Qo‘shimchali PZshF2-15 va PZshF2-20 namunalarida esa oltingugurt angidridi mos ravishda 2,53 % va 2,76 % ni tashkil etib, barcha o‘rnatilgan talablarga javob beradi.

Komponentlar nisbatlari bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ZshF2 namunada zoloshlak:fosfogips nisbatlari 70:30 eng optimal tarkib deb topildi.

Tayyorlangan PZshF1-15, PZshF1-20, PZshF2-15, PZshF2-20 qo'shimchali sement namunalarining barchasida suvga bo'lgan ehtiyoj (vodopotrebnost) taqqoslash uchun olingan portlandsement PTS-D0 bilan deyarli bir xil natijalar berdi.

Keyingi tadqiqotlar tayyorlangan PZshF1-15, PZshF1-20, PZshF2-15, PZshF2-20 qo'shimchali sement namunalarining qotish boshlanishi va tugashi muddatlarini aniqlash bo'yicha olib borildi. O'rnatilgan talablar bo'yicha qotish boshlanishi

45 minutdan keyin, tugashi 10 soatdan keyin sodir bo'lishi kerak, tayyorlangan PZshF1-15, PZshF1-20, PZshF2-15, PZshF2-20 qo'shimchali sement namunalari sekin qotish xususiyatiga ega bo'lib, barcha namunalarda qotish boshlanishi 10 soatdan keyin, tugashi 24 soatni tashkil etdi va bu o'rnatilgan talablarga javob beradi (7-jadval).

### 7-jadval

#### "Zoloshlak + fosfogips" qo'shimchalari bilan portlend sementlarining normal quyuvligi va qotish muddatlari

Sement namunalarining shartli belgilanishi	Sement aralashmasining quyuvligi, %	Qotish muddati, soat	
		Boshlanishi	Tugashi
PTS-D0	25,71	5-30	7-10
PZshF1-15	24,28	5	7-12
PZshF1-20	25,71	4	7-12
PZshF2-15	24,28	5	7-12
PZshF2-20	24,28	5	7-12


Qo'shimchali sementlarda qotish muddatlarining kattaligi, fosfogips tarkibida suvda eruvchan fosfatlar borligi sabab bo'lib, bu esa fosfogipsni qayta ishlamasdan jarayonda qo'llash imkonini beradi.

Tayyorlangan qo'shimchali sement namunalarining mustahkamlik xarakteristikalari GOST 310.4 bo'yicha sement: qum = 1:3 nisbatda 40x40x60 mm li balochkalar tayyorlash orqali sinab ko'rildi. Talab bo'yicha tayyorlangan balochkalar qoliplarda 90 % namlikda 24 soat davomida saqlanadi, so'ngra qolipdan olinib, keyingi sinovlargacha suvga solib qo'yiladi.

Sementga qo'shiladigan zoloshlak + fosfogis nisbatlari va miqdoriga qarab, qotishning boshlanishi muddatlari o'zgaradi.

Sementga turli nisbatlardagi zoloshlak-fosfogips turli miqdorlarda qo'shilganda qotish boshlanishi muddatlari turlicha o'zgarishi bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, sement tarkibidagi faol minera qo'shimchalar miqdori ortishi bilan ularning tarkibidagi suvda eruvchan fosforning miqdori ortib borishi sababli qotishning boshlanish muddatlari ham mos ravishda ortib boradi (3-rasm).

Belgilangan qotish muddatlarida, 7 sutkadan keyin PZshF2-15, PZshF2-20 namunalarida siqilishga mustahkamlik mos ravishda 26,8 MPa va 24,1 MPa ni tashkil qildi va bu namunadagi PTS-D0 portlandtsemenddan (26,8 MPa) deyarli farq qilmadi.



**3-rasm. Kul+shlak : fosfogipsning nisbatlari va miqdoriga qarab, qotishning boshlanishi muddatlari**

PZshF2-15, PZshF2-20 namunalarida mustahkamlik ko'rsatkichlari 28 sutkadan keyin mos ravishda 47,8 MPa va 50,8 MPa ni tashkil qilib, namunadagi PTS-D0 portlandtsemenddan (42,1 MPa) mos ravishda 12 % va 20 % ga yuqoriligini ko'rsatdi (8-jadval).

8-jadval

**Qo'shimchali sementlarning mustahkamligi aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari**

Sement namunalarining shartli belgilanishi	Suv/sem nisbati 1:3	Konusning erishi, mm	Mustahkamligi, MPa				Sement markasi
			7 sutka		28 sutka		
			R <sub>bukl</sub>	R <sub>siqil</sub>	R <sub>bukl</sub>	R <sub>siqil</sub>	
PTS-D0	0,368	115	5,3	26,8	5,8	42,2/100	400
PZshF1-15	0,356	113	4,4	21,9	5,9	43,1/102	400
PZshF1-20	0,362	113	3,8	18,2	4,2	26,8/63,5	Mos kelmaydi
PZshF2-15	0,356	112	4,9	26,8	6,2	47,8/113	400
PZshF2-20	0,356	113	4,4	24,1	6,2	50,8/120	500

Shunday qilib, o'tkazilgan sinov natijalari "kul+shlak:fosfogipsning" aralashmalarining avtoklavda qayta ishlangan namunalari sementning

mustahkamlik xususiyatlariga ijobiy taʼsir koʻrsatishini isbotladi. Shuningdek, 3-namuna (PZshF1-20) dan tashqari barcha namunalarni oʻrnatilgan talablarga javob beradigan kompozit qoʻshimchali sement olishda foydalanish uchun tavsiya qilish imkonini berdi. 7-jadvalda keltirilgan PZshF1-15, PZshF2-15, PZshF2-20 qoʻshimchali sement namunalari 20 % gacha taklif qilinayotgan faol mineral qoʻshimcha qoʻshilganda sement markasi M400 dan yuqori boʻlishi isbotlandi.

## XULOSALAR

1. Texnogen chiqindilardan sementga faol mineral qoʻshimcha olish va uni tayyorlash usuli yaratilgan.

2. Sintezlangan faol mineral qoʻshimcha “Fosfozol” koʻp funktsiyalilik xususiyatga ega: qovushqoqlikni kamaytiradi, qoʻshimchali sementlarda qotish muddatlarini tartibga soladi, pH muhitini meyorlashtiradi.

3. Fosfozol - sanoat miqyosida M200, M500 markali sementlardan ogʻir temir-beton konstruksiyalari olishda silikat qorishmalar uchun plastifikator va suyultiruvchi qoʻshimcha sifatida qoʻllaniladi.

4. Sement ishlab chiqarishda texnogen chiqindilaridan olingan “Fosfozol” ni faol mineral qoʻshimcha sifatida qoʻllab, qattiq sovuqqa va namgarchilikka chidamli beton qorishmalari olingan.

5. Texnogen chiqindilardan olingan faol mineral qoʻshimchani klinkerga qoʻshish orqali **sement tannarxini 20-25% gacha kamaytirish** imkoniyati yaratilgan.

6. Yaratilgan texnologiya boʻyicha “Axangaransement” AJ ga 365000 tonnadan ortiq fosfozol yetkazib berilgan va GOST 10178, OʻzDst 28-30-2014 talablariga javob beradigan 3 mln tonnadan ortiq sement ishlab chiqarilib, **350 mlrd soʻmlik iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.**

7. Mazkur texnologiya asosida sanoat korxonalarida toʻplanib qolgan **70 mln. tonnadan ortiq fosfogips va 15 mln. tonnadan ortiq kul-shlakni** mahsulot olishga yoʻnaltirib, utilizatsiya qilish imkoniyati yaratilgan. Natijada sanoat chiqindilarni qayta ishlash orqali atrof-muhitga etkaziladigan zararni kamaytirishga erishilgan.

8. Taklif etilayotgan texnologiyadan foydalanish hisobiga atmosferaga tashlanadigan **CO<sub>2</sub> gaz emissiyasi** ishlab chiqarish birligiga nisbatan **30-35% ga kamaytirishga** erishilgan.

9. Ishlab chiqilgan texnologiya joriy etilganidan soʻng, sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan **2 million tonnadan ortiq qurilish gipsini tejash** imkoniyati paydo boʻldi, shuningdek, ochiq usulda gips qazib olishda atrof-muhitga salbiy taʼsir kamaydi.

10. Oʻta xavfli chiqindilar hisoblangan fosfogips va kul-shlaklarning yoʻq qilish **texnogen chiqindilarning Angren, Olmaliq va yaqin atrofdagi aholi punktlari ekotizimiga salbiy taʼsirini kamaytirdi.**

11. Texnogen chiqindilarni utilizatsiya qilish va qfaol mineral qoʻshimchalar olish texnologiyasi Oʻzbekiston Respublikasida (IAP 05372; IAP 05689) va Rossiya Federatsiyasida patentlangan va Rossiya Federatsiyasi va Oʻzbekiston Respublikasi korxonalarida joriy etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РbD.18/30.Т.153.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО - ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ  
ИНСТИТУТЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ПРИРОДООХРАННЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ**

---

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ОКРУЖАЮЩЕЙ  
СРЕДЫ И ПРИРОДООХРАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ЮЛДАШЕВ ФАРХОД ТАЛАЗОВИЧ**

**АКТИВНАЯ МИНЕРАЛЬНАЯ ДОБАВКА К ЦЕМЕНТУ ИЗ  
ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ И СПОСОБ ЕЕ ПОЛУЧЕНИЯ**

**11.00.05 – Охрана окружающей среды и рациональное использование природных  
ресурсов**

**АВТОПРЕСТАВЛЕНИЯ**

**на получение ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам на  
основании патента на изобретение и защиты без диссертации**

**ТАШКЕНТ – 2024**

**Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.4.PhD/Gr297.**

Научно-исследовательская работа проводилась в Научно-исследовательском институте окружающей среды и природоохранных технологий.

Автопреставление научно-исследовательской работы на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета ([www.ecoil.m.uz](http://www.ecoil.m.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)) размещен.

**Научный руководитель:**

**Аминов Хамза Хусанович**  
доктор философии (PhD), профессор

Автопреставление научного исследования состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 г. в «\_\_» часов на заседании Научного совета PhD.18/30.11.2022.т.153.01 при НИИ окружающей среды и природоохранных технологий по адресу: 100043, город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, дом 7а. (тел: (71) 277-69-83; факс: (71) 277-89-22; электронная почта: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz)).

С автопреставлением научной работе можно ознакомиться в в информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института природоохранных и природоохранных технологий (зарегистрирован под номером \_\_). Адрес: 100043, город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, дом 7а. (71) 277-89-22; электронная почта: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz).

Автопреставление научного исследования разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.

(протокол рассылки №\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 г.)

**Б.А.Пулатов**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

**Л.Н.Самиев**

Ученый секретарь Научного семинара  
Научного совета по присуждению  
ученый степеней, д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация автопрезентаций)**

### **Актуальность и необходимость научно-исследовательской работы.**

Известно, что промышленные отходы составляют 96-98 % существующих отходов. В последние годы перерабатывающие предприятия нашей Республики в результате развития промышленных предприятий отрицательно влияют на окружающую среду, ее живые организмы и здоровье человека, что является одной из наиболее угрожающих проблем. В результате ежегодного увеличения промышленных выбросов уровень загрязнения территорий предприятий и близлежащих населенных пунктов возрастает, а в некоторых районах достигает весьма опасного уровня. Большинство смертей по причинам, связанным с загрязнением окружающей среды и воздуха, происходит в странах с низким и средним уровнем дохода. Лидирующие места занимают страны Азии и Африки, а следующие места занимают страны с низким и средним уровнем дохода Восточного Средиземноморья, страны Европы и регионы Америки. Среди населения выявлены такие заболевания вследствие воздействия частиц PM 2,5 и PM 10 (это воздушный загрязнитель, в состав которого входят, как твердые микрочастицы, так и мельчайшие капельки жидкостей), вызывающих сердечно-сосудистые, респираторные и онкологические заболевания с высоким уровнем смертности. Согласно анализам Всемирной организации здравоохранения, загрязнение окружающей среды и атмосферы является основной причиной неинфекционных заболеваний. Установлено, что вышеуказанные факторы являются причиной 23% смертей от сердечной недостаточности, 24% смертей от тромбов и других заболеваний и 28% смертей от рака дыхательных путей. Поэтому сегодня наши ученые уделяют большое внимание вопросам совершенствования методов и технологий защиты окружающей среды и атмосферного воздуха путем переработки и утилизации промышленных отходов.

Среди объектов, загрязняющих окружающую среду и атмосферный воздух частицами пыли различного состава, особое место занимают предприятия химической переработки, в том числе предприятия по производству минеральных удобрений.

Указ Президента №158 «О стратегии «Узбекистан-2030» от 11 сентября 2023 года поставил задачу поэтапного перехода к зеленой экономике и увеличению утилизации промышленных отходов в 2,5 раза. Исходя из этого, увеличение научных исследований по переработке и утилизации промышленных отходов, создание наукоемких технологий и совершенствование существующих является актуальной задачей, имеющей большое научное и экологическое значение.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий

республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

**Степень изученности проблемы.** Выдающийся ученые такие как М.Н.Набиев, К.С.Ахмедов, С.Тухтаев, Ш.С.Намозов, З.Пулатов, М.Искандарова внесли свой вклад в переработку, утилизацию промышленных отходов, совершенствованию существующих технологий и их внедрению в нашей республике. Ученые других стран внесли свою лепту в проблему утилизации техногенных отходов, среди них необходимо отметить таких специалистов и мэтров как: В.М.Рамм, Г.М.Алиев, В.Н.Азаров, А.Г.Аверкин, В.Н.Ужов, А.М.Беливицкий, А.Ю. Вальдберг, В.С.Швыдкий, М.Г. Ладыгичев, С.Б. Старк, Д.Н. Ватузов, А.М. Редван, Ю.В.Старцева, О.В. Карпова, Е.В. Омельченко, Р.А. Астанов, И.Н. Борисов, Д.А. Мишин и другие исследователи.

Научные исследования по совершенствованию технологий переработки и получению продуктов из фосфогипса, образующегося в производстве экстракции фосфорной кислоты изучали В.В. Окорков, Ю.Г.Мещеряков, С.В.Федоров, К.Карпенко, Д.К.Эгембердиев, А.С.Сейтказиев, Х.И.Турсунбаев и многие другие. Однако накопление около 90 млн тонн отходов на предприятиях этого производства означает, что исследования по научному обоснованию технологических параметров существующих методов переработки являются не совсем эффективными и носят в основном теоретический характер. Однако накопление нескольких десятка миллионов тонн промышленных отходов на промышленных предприятиях приводит к тому, что их негативное воздействие на окружающую среду возрастает, существующие эффективные методы переработки недостаточно изучены, что приводит к научному обоснованию их технологических параметров.

**Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного учреждения, где выполнена диссертация.** Данное научное исследование проведено в рамках научно-исследовательских работ «Совершенствование технологий переработки промышленных отходов» НИИ Окружающей среды и природоохранных технологий.

**Цель исследований** - разработка технологии получения активных минеральных добавок для цемента путем их переработки в автоклаве из промышленных отходов (фосфогипс, золошлаки), оказывающих негативное воздействие на окружающую среду и создание технологии получения активных минеральных добавок для цементного клинкера.

**Задачи исследования:**

